

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VA ULARNING  
PSIXOLOGIYASI**

***Absattarova Nawbahar Baxitovna, Bekmanova Ayjamal Tayirovna***

***Qoraqalpoǵiston Respublikasi***

***Nukus tumani 11 va Kegeyli tumani 14 – sonlı məktəb psixologları***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamizda məktəbgachada yoshdagi bolalarning rivojlanishi, tarbiyasi va ularning psixologik hususiyatlari haqida bayon etiladi. Chuningdek bugungi kunda məktəbgachada yoshdagi bolalarga davlatimizning etibori va chiqarilgan farmonlari bo'yicha fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Məktəbgacha ta'lim, bolalar psixologiyasi, zamonaviy yondashuvlar va farmonlar, til o'rgatish, tarbiya, oqitish.

O'zbekistan Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan 2017 yil 30 sentyabrdagi "Məktəbgacha ta'lim tizmini boshqarishni tubdan rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Məktəbgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichmabosqich o'tish bo'yicha chora-tadbilar haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi qarorini ijro etish bo'yincha O'zbekiston Respublikasi Məktəbgacha ta'lim vazirligi o'z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarni boshlangich ta'limgacha to'lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo'yincha majburyatni oldi. Bir so'z bilan aytganda, biz məktəbgacha ta'lim sohasida har jihatdan zamonaviy tizim yaratishimiz va 5-6 yoshdagi barcha bolalarni məktəbgacha ta'limga to'liq qamrab olishga erishmog'imiz kerak, dedi davlatimiz rahbari. Bu ertangi kunimizni hal qiladigan masala va biz buni albatta amalga oshiramiz deb takidlab o'tdi prezidentimiz. Ushbu farmon va qarorlarning na'tiyjasida məktəbgacha ta'lim tashkilotlari yangidan ochildi eng chekka hududlarda ham məktəbgacha ta'lim tashkilotlari qurib foydalanishga topshirildi.

Fanda aytlishi bo'yincha maktabgacha ta'lim 3 yoshdan 7 yoshgacha bolgan yoshlar nazarda tutilgan. Har bir yoshdagi bolaning psixologiyasi turlicha boladi.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lган maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Bu davr bolaning oldingi hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har tomonlama rivojlanadi va osadi bu davrda bolani to'gri yolga boshlab unga yaxshi tarbiya berish kerak bo'ladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida aytib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lган davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda berilgan tarbiya, bola hayotida oladigan tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi degan edi.

Bola ilk bolalikdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, hatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi. Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalna boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqeа va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tartib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqeа va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'simliklar qiziqtiradi. Shuning uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-xil savollarga ko'mib tashlaydilar. Endi ular voqeа va hodisalarga

boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. “Nima uchun qaroqchi bo'ladi?”, “Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi?”, “Nima uchun qor yog'adi?” va boshqa savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi. Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir, o'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozlishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqeа va hodisa qiziqtiradi.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya sohalarining biri sifatida, bola psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalananadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos hususiyatlari bor. Bola shaxsi xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang kesim va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtida turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik hususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan bolaga bo'lgan ishonchni, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborini his qildira olish, mu'mkin bo'lgan va mu'mkin bo'lmasigan holatlar o'rgatiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarga individual yondashish uchun ularning individual psixologik xususiyatlarini, shaxsining o'ziga xosligini bilish, o'rganish zarur. “Agar pedagogika odamni har

jihatdan tarbiyalamoqchi bo'lsa, u oldin o'sha odamni ham har jihatdan bilib olishi kerak", - deb yozgan edi K.D. Ushinskiy. Shuning uchun har bir tarbiyachi bolalani o'rganish usullari bilan qurollanishi shart. Demak, bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi asoslarini bilish har bir tarbiyachisi va metodist uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir fanning o'z predmetini o'rganish metodlari bo'lgani kabi, bolalar psixologiyasi ham psixologiya fanining alohida bo'limlari tadqiqot metodlariga ega.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyati qiziquvchanligi juda yuqori bo'ladi shuning uchun ham bu yoshdagi bolalarni kelajakda yaxshi insonlar bilimli va kuchli daxo insonlar qilib tarbiyalash uchun bu yoshdagi bolalarga ko'proq e'tabor berish va ilim o'rgatish lozim deb hisoblanadi.

Maktabgacha yosh deganda 3 yoshdan 7 yoshgacha bolgan bolalar hisoblanadi. Bu davr bolalarning tez rivojlanadigan va tez qabul qila oladigan davri bolip hisoblanadi. Shuning uchun ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bolalar talim tarbiyasiga juda katta etibor berish kerakligini aytib kelmoqda. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda qiziquvchanlik juda yukori bolaganligi uchun ular har bir qo'rgan narsasining nimaligiga qayerdan kelip chiqqaniga qanday kelip chiqqaniga juda qiziquvchan bo'lismehdi va sersavol bo'lismehdi ularning savoliga erinmasdan javob berish uchun maktabgacha ta'lim mussasalarida ularning savollariga tarbiyachilar javob beradi. Bu bilan bolalarni o'qishga bolgan ta'lim olishga bolgan ishtyoqini oshirib boramiz va bu bolalar psixologiyasiga juda katta ta'sir qiladi ularning onggiga psixologiyasiga ta'lim o'lish ilim o'rganish degan tushinchani singdirip bo'rishimizga juda katta yo'rdam bo'ladi. Bolalar yoshligidan yaxshi ta'lim tarbiya olishi kelajakda davlatning rivojlanishiga, yuksalishiga eng katta va rivojlangan davlat bo'lismehiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Oila" bolaning "men"ini shakillantirivchi ijtimoiy muhitga aylanib, o'zining ushbu muhitga aloqadorligini

anglash katta ahamiyat kasb etadi. Bu yerda shuni qayd etish kerak ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasida ota-onabola munosabatlari evolyutsion jihatdan nisbatan kichik va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunki ular shakllanib bolgan er-hotin munosabatlari asosida vujudga keladi.

### **Adabiyotlar**

- 1.** G.F. Ro'ziboyeva Maktabgacha yoshdagি bolalar psixologiyasining nozik jihatlari.
- 2.** O. Kuchkarova Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni.
- 3.** O.U. Hasanboyeva va boshqalar Maktabgacha ta'lim pedagogikasi
- 4.** M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuxammedov, M.Mavlonov, S. To'ychiyeva Yosh davrlari va pedagogi psixologiyasi. O'quv qo'llanma
- 5.** E. G'oziyev Yosh davrlari va pedagogik psixologiya